

**SAMARQAND VILOYATIDA SUVCHECHAKNING KLINIK-EPIDEMIOLOGIK
XUSUSIYATLARI VA PROFILAKTIKASI****Sh. A. Jurayev**

Samarqand davlat tibbiyot universiteti, Samarqand, O'zbekiston

Tayanch so'zlar: suvchechak, Varicella-Zoster virusi, epidemiologiya, vaksina, immunitet, profilaktika, O'zbekiston, Samarqand viloyati.

Ключевые слова: ветряная оспа, вирус Varicella-Zoster, эпидемиология, вакцина, иммунитет, профилактика, Узбекистан, Самаркандская область.

Key words: chickenpox, Varicella-Zoster virus, epidemiology, vaccine, immunity, prevention, Uzbekistan, Samarkand region.

Muammo dolzarbligi: suvchechak yuqori yuqumlilik darajasiga ega bo'lib, bolalar orasida keng tarqalgan kasallik hisoblanadi. Kattalar orasida kamroq uchrasa ham, ularning kasallikni og'ir o'tkazish ehtimoli yuqori. Ayniqsa, immuniteti zaif bemorlarda og'ir asoratlar kuzatiladi. Samarqand viloyatida o'tkazilgan tadqiqotda bolalar va kattalarda kasallikning klinik-laborator xususiyatlari tahlil qilindi va oldini olish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

**КЛИНИКО-ЭПИДЕМИОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ВЕТРЯНОЙ ОСПЫ И ПРОФИЛАКТИКА
В САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ****Ш. А. Жураев**

Самаркандский государственный медицинский университет, Самарканд, Узбекистан

Актуальность проблемы: Ветряная оспа – это высокозаразное инфекционное заболевание, широко распространенное среди детей. Хотя среди взрослых встречаемость ниже, течение заболевания у них часто бывает более тяжелым. Особенно высок риск осложнений у пациентов с ослабленным иммунитетом. В данном исследовании проведен клинико-лабораторный анализ заболевания среди детей и взрослых в Самаркандской области, а также разработаны рекомендации по профилактике инфекции.

**CLINICAL AND EPIDEMIOLOGICAL CHARACTERISTICS OF CHICKENPOX AND IT'S
PREVENTION IN SAMARKAND REGION****Sh. A. Jurayev**

Samarkand state medical university, Samarkand, Uzbekistan

Relevance of the problem: chickenpox is a highly contagious infectious disease that is widespread among children. Although it is less common among adults, the disease tends to be more severe in them. The risk of complications is particularly high in immunocompromised patients. This study analyzes the clinical and laboratory characteristics of chickenpox among children and adults in the Samarkand region and provides recommendations for disease prevention.

Mavzuning dolzarbligi: Suvchechak– yuqori yuqumlilikka ega bo'lgan keng tarqalgan infeksiya bo'lib, Varicella-Zoster virusi (VZV) tomonidan chaqiriladi. Virus dastlab suvchechakni keltirib chiqaradi, keyinchalik esa latent infeksiyaning reaktivlanishi zona (herpes zoster) kasalligiga sabab bo'lishi mumkin. JSST ma'lumotlariga ko'ra, o'rta iqlimli mamlakatlarda (emlash dasturi bo'lmasa) bolalar va o'smirlarning 90% dan ortig'i ushbu virus bilan zararlanadi, tropik hududlarda esa infeksiya kattaroq yoshda kuzatiladi [1,2]. VZV yuqori yuqumlilik darajasiga ega bo'lib, ikkilamchi yuqtirish ehtimoli 61–100% oralig'ida. Har yili dunyo bo'ylab 750–800 ming kishi ushbu infeksiya bilan kasallanadi, o'lim darajasi esa 1:60 000 nisbatida qayd etiladi. Kattalarda kasallik kamroq uchrasa-da, asoratlar va o'lim xavfi bolalarga nisbatan 10–20 baravar yuqori. Xususan, kattalarda pnevmoniya 10% hollarda o'limga olib kelishi mumkin. O'zbekistonda ham kasallanish darajasi yuqori bo'lib, iqtisodiyotga sezilarli zarar yetkazmoqda. Vetryanka odatda o'z-o'zidan tuzaladigan kasallik sanalsa-da, ba'zi hollarda pnevmoniya, serebellar ataksiya, ensefalit, gemorragik asoratlar va teri infeksiyalari bilan og'irlashishi mumkin. Ichki organlar shikastlanishi asosan immuniteti zaif bemorlarda kuzatilsa ham, vafot etgan bemorlarning aksariyati ilgari sog'lom bo'lgan bolalar orasida qayd etilgan [6,7].

Tadqiqot maqsadi: Zamonaviy sharoitlarda Suvchechak infeksiyasining kechish xususiyatlarini o'rganish.

Materiallar va tadqiqot usullari: 2020–2023-yillar davomida Samarqand viloyat klinik yuqumli kasalliklar shifoxonasida Vetryanka tashxisi bilan statsionar davolangan bemorlarning tibbiy arxiv hujjatlari tahlil qilindi. Tanlama usuli orqali Vetryanka bilan kasallangan va kasalxonaga yotqizilgan bemorlarning klinik-epidemiologik tahlili o'tkazildi.

Natijalar: 2020–2023-yillar davomida Samarqand viloyatida 310 ta Vetryanika kasalligi holati qayd etilgan. Ulardan: kasallanganlarning 160 nafari tashkilotga bog‘liq shaxslar (maktab, bog‘cha, ish joyi), 150 nafari esa uyda bo‘lganlar. 202 nafar bemor kasallangan shaxs bilan aloqada bo‘lgan. Shahar aholisi orasida 165 nafar, qishloq aholisi orasida esa 145 nafar bemor aniqlangan. Hududlar bo‘yicha kasallanganlarning taqsimoti:

Mavsumiylik. Kasallik eng ko‘p may-iyun oylarida kuzatilgan.

Qishda va bahorda kasallikning yuqori ko‘rsatkichlari kuzatilgan bo‘lib, bu holat organizmning immuniteti, oziq-ovqat tarkibining o‘zgarishi, kam harakatlilik va quyosh nurlanishining kamayishi bilan bog‘liq. Ushbu natijalar boshqa mualliflarning tadqiqotlari [1] bilan ham mos keladi, ular ham qish-bahor faslida Vetryanika virusi sezgir shaxslarda epidemiyalar keltirib chiqarishi mumkinligini ta’kidlaganlar. Suvchechak asosan bolalar infeksiyasi hisoblangan bo‘lsa-da, so‘nggi yillarda u kattalar orasida ham tez-tez uchramoqda. Tadqiqotimiz natijalariga ko‘ra, 70 nafar bemorda suvchechak tashxisi qo‘yilgan bo‘lib, ularning 72,8% (51 kishi) erkaklar bo‘lib, yoshi 19-35 oralig‘ida edi. Katta yoshdagilarda kasallikning klinik belgilari bolalardagidek bo‘lsa-da, uning og‘ir kechishi kuzatildi. 76% bemorlarda kasallik o‘rtacha og‘irlikda, 12% bemorlarda og‘ir, faqat 12% bemorlarda esa yengil shaklda kechgan. Kasallikning og‘ir kechishi asoratlar bilan bog‘liq edi: 15% holatlarda asoratlar kuzatilgan bo‘lib, eng keng tarqalgani pnevmoniya bo‘lib, u 6 bemorda rivojlangan. Tadqiqotlar [2, 3, 4] natijalariga ko‘ra, pnevmoniya kattalardagi suvchechakning eng ko‘p uchraydigan asoratlaridan biridir. Shuningdek, kon’yunktivit va streptodermiya kuzatilgan. Kamdan-kam hollarda keratit, episklerit va otit kabi asoratlar qayd etilgan.

Klinik-epidemiologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, epidemiologik anamnez muhim ahamiyatga ega bo‘lib, kasallik manbasini aniqlash va uni jamoaviy hamda oilaviy o‘choqlarda tarqalishini oldini olish imkonini beradi.

Xulosa va tavsiyalar: tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, suvchechak yuqori yuqumlilik darajasiga ega bo‘lib, ayniqsa qish va bahor oylarida kasallanish darajasi ortadi. Samarqand viloyatida 2020–2023-yillar davomida 310 ta suvchechak holati qayd etilib, kasallik asosan bolalar orasida kuzatilgan bo‘lsa-da, kattalarda ham uchrayotganligi aniqlangan. Katta yoshdagilarda suvchechakning og‘ir kechish ehtimoli yuqori bo‘lib, 15% bemorda asoratlar, jumladan pnevmoniya, kon’yunktivit va streptodermiya kuzatilgan. Profilaktika choralari yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagani sababli, kasallikning oldini axoli o‘rtasida tibbiy madaniyatni oshirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Tavsiyalar: profilaktik tadbirlarni kuchaytirish: Kasallikning mavsumiy ko‘tarilish davrlarida jamoaviy muassasalarda (maktab, bog‘cha) nazoratni kuchaytirish, kasallangan bemorlarni erta izolyatsiya qilish va sanitariya-gigiyena choralari oshirish tavsiya etiladi.

Shifokorlarni tayyorlash: Tibbiyot xodimlari orasida suvchechak tashxisini aniqlash, davolash va profilaktika choralari bo‘yicha muntazam trening va seminarlar tashkil etish zarur.

Aholi o‘rtasida targ‘ibot ishlari: Suvchechakning xavfi va uni oldini olish choralari haqida keng jamoatchilikni xabardor qilish uchun ommaviy axborot vositalari orqali tushuntirish ishlarini olib borish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Blumental, Sophie. Management of varicella in neonates and infants /Sophie Blumental, Philippe Lepage. *BMJ Paediatrics Open*. 2019; 3(1): e000433. —doi:10.1136/bmjpo-2019-000433. — PMID 31263790. — PMC 6570487.
2. FDA Approval of an Extended Period for Administering VariZIG for Postexposure Prophylaxis of Varicella . *Morbidity and Mortality Weekly Report (MMWR)*. 2012; 61(12):.212.guidelines/isolation-guidelines.pdf. Accessed May 4, 2020
3. Varicella and herpes zoster vaccines: WHO position paper. *who.int* (20 June 2014). Available from: https://www.who.int/immunization/position_papers/WHO_pp_varicella_herpes_zoster_june2014_presentation.pdf?ua=1 Accessed May 4, 2020
4. Кузнецова, И.О. Ветряная оспа: перспективы борьбы с «безобидной» инфекцией. — Пермь : ГлаксоСмит-Кляйн, 2016. . [Kuznetsova, I.O. Vetryanaya ospa: perspektivy bor'by s «bezobidnoy» infektsiyey. — Perm' : GlaksoSmitKlyayn, 2016. (In Russ).]

5. Uralov Sh.M., Zhuraev Sh.A., Israilova S.B. "On the Impact of Environmental Factors on the Quality of Life and Health of Youth" Vol. 1 No. 3 (2022): So'ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi, N3, 2022/9/13, pp. 6-13, <https://bestpublication.org/index.php/sit/article/view/766/741>
6. Soxiba Israel, Shavkat Juryev, & Dilfuza Amanova. (2024) Establishment of primary prevention in medical institutions. Лучшие интеллектуальные исследования, 13(5), 125-129. Retrieved from <http://web-journal.ru/index.php/journal/article/view/364>
7. Zhuraev Sh. A., Israilova S. B., Uralov Sh. M. Materials of the scientific and practical conference., 20 (2020).
8. Namozovich R. R. et al. Acute Obstructive Bronchitis in Children: Main Etiological and Clinical Features // European journal of modern medicine and practice. – 2024. – Т. 4. – №. 2. – С. 98-100.